

INFORMATIKA FANI AHAMIYATI VA MAQSAD VAZIFALARI

Karimjonova Nozima Odiljon qizi

Kosonsoy tuman 1- son Kasb hunar maktabi informatika fani katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada informatika fani uning maqsad vazifalari hamda uni o'qitishning ahamiyati borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Informatika, axborot, maqsad, vazifa, ahamiyat, axborotni qayta ishlash, EHM*

Informatika fanini maktablarda va oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotganiga ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Hozirgi kunga kelib, informatika oliy ta'lim tizimida asosiy (bazaviy) fan sifatida o'qitilmoqda. «Informatika» fani to'g'risida hozirga qadar muayyan fikr mavjud emas. Ba'zi mutaxassislar — bu «vaqtinchalik, modaga qarab o'tib ketuvchi hodisa» degan fikrda bo'lsalar, boshqalar esa informatikani faqat amaliy fan sifatida qabul qilib, uni «tugmchalarni to'g'ri bosish» fani deb atashmoqda. Bugungi kunda mutaxassis, o'ziga yuklatilgan vazifalarni talab darajasida bajarishi uchun olinayotgan axborotni qayta ishlashi taqozo etiladi. Inson nazariy jihatdan piyoda xohlagan masofani o'tishi mumkin. Lekin hozirgi hayot darajasi bu ishni bajarish uchun avtomobildan, poyezddan, samolyotdan va boshqalardan foydalanishni talab qik.di. Xuddi shunday ko'rinish axborotni qayta ishlashda ham sodir bo'lmoqda: nazariy jihatdan inson kompyutersiz xohlagan axborotni qayta ishlab olishi mumkin, lekin buni samarali bajarishi uchun Informatika fanining bilimlari va malakasi kerak bo'ladi. «Informatika» bilimlar turkimi qaratilgan turli nuqtayi nazar, oliy o'quv yurtlaridagi o'tilayotgan fanning chegara va mazmunini aniqlovchi turli yondoshishlarni keltirib chiqaradi. Hozirda «Informatika» fani bo'yicha bir nechta na'munaviy dasturlar mavjud bo'lib, har bir o'quv yurti ularga asoslangan holda o'quv jarayonini tashkil etmoqda.

Insoniyat o'zining rivojlanishi tarixi mobaynida moddiy quvvat va axborotlarni o'zlashtirib kelgan. Bu rivojlanishning butun bir davrlari shu bosqichning ilg'or texnologiyasi nomi bilan atalgan. Masalan: “tosh asri” — mehnat quroli yasash uchun toshga ishlov berish texnologiyasini egallash bochiqichi, “kitob chop etish asri” — axborotni tarqatishni yangi usulini o'zlashtirish bosqichi, “elektr asri” — quvvatning yangi turlarini o'zlashtirish bosqichi shular jumlasidandir

Bundan 20-30 yillar ilgari “atom asri” boshlandi deyilgan bo'lsa, hozirgi kunda “EXM asri” deb aytiladi. Biz yangi “Informatika” fanining o'rgana boshlaymiz. “Informatika fanining kelib chiqishi, uning uch tarkibiy qismi algoritm, dastur va xisoblash vositalarini paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq. Kishilik jamiyatida xisoblash ishlari (podadagi mollar soni, ov natijasi, er o'lchash va hk.) boshlangan davridayok qo'shish, ayirish kabi arifmetik amallardan, keyinchalik esa ko'paytirish va bo'lishdan foydalanganlar. Bu amallar usha davrga taalukli bo'lgan algoritmlar asosida bajarilgan.

INFORMATIKA, (frans. informatique, nem. informatik — axborot), axborotshunoslik — ilmiy informatsiya (axborot, xabar, ma'lumot)ning mohiyati, umumiy xossalari va krnu-niyatlarini, shuningdek, ilmiy kommunikatsiya tizimi (o'sha ilmiy informatsiyani tarqatish usullari va vositalari majmui)ni o'rganish bilan shug'ullanadigan ilmiy fan; inson faoliyatining EHM, kompyuterlar bilan bog'liq bo'lgan sohasi. Ijtimoiy fanlar jumlasiga kiradi. Uning markaziy tushunchasi — ijtimoiy hayotning istalgan sohasi va tarmoqlaridan olinadigan ma'lumotlar, ya'ni ilmiy informatsiya.

Informatika (ya'ni axborot texnologiyalari) jamiyatning har bir sohasida katta ahamiyatga ega bo'lib, dunyoning bir qadam oldida bo'lishini ta'minlaydi. Informatika va axborot texnologiyalari, turli sohalarda amaliyotlarni yaxshilash, ma'lumotlar oqimini oshirish, kompyuterlarning va kompyuter tarmoqlarining yaratilishidan foydalanadi. Bu sohalar o'zaro aloqani yuqori darajada oshiradi va ularda inovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish va boshqa muhim vazifalarni bajarish uchun juda katta potentsial mavjud. "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining predmeti bir-biri bilan o'zviy bog'liq uchta tushuncha: algoritmlash, dasturlash va kompyuterdan tashqil topgan bo'lib, talabalarning algoritmik fikrlash madaniyatini ustiris kompyuter savodxonligini oshirish va kompyuterni o'qish jarayonida, ilmiy texnik hisoblash ishlarida, ilmiy izlanishlarda qo'llash bilimlarini berishni nazarda tutadi. "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining vazifasi talabalarga kompyuterda qayta ishlov uchun zarur bo'lgan axborotlarni tasvirlash, yechilayotgan masalani birmuncha sodda bulaklarga bo'lib, matematik modellash asoslarini o'zlashtirish, asosiy algoritmlar turlarini, algoritmik tillardan birini mukammal bilish, dastur tuzish va uni kompyuterga kiritib natija olish va shaxsiy kompyuterlarda ishlashni urgatishdan iboratdir. "Informatika va axborot texnologiyalari" axborotlarni kompyuter yordamida tasvirlash, saqlab turish, uzatish va ishlov berish usullarini urganadigan fandır. Axborot umumiy ta'rifga ega bo'lmagan imperik tushuncha bo'lib, axborot nima degan savolga, falsafa fani bizni o'rab turgan borliqning ifodasi deb tushuntirsa, axborotlardan amalda foydalanuvchilar axborot bu saqlanish, shakl o'zgartirish va uzatish mumkin bo'lgan ashyo (ob'ekt) deb tushuntiradi.

Informatika va axborot texnologiyalari ahamiyati quyidagi ko'rsatkichlarda ifodalash mumkin:

1. Ma'lumotlarni saqlash va boshqarish: Informatika ma'lumotlarni yaxshi saqlash, qidirish, tahlil qilish, taqdim etish va o'zgarishlarni qilish imkoniyatini beradi. Bu, korxonalar, hokimiyatlar, tibbiyot, ta'lim va boshqa sohalardagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlatishda juda katta ahamiyatga ega.

2. Biznes sohasida: Biznesning barcha turlarida informatika va axborot texnologiyalari katta ahamiyatga ega. Ma'lumotlar tahlil qilinishi, sotuv, marketing va xizmatlarni ta'minlashda, korxonalar samarali boshqarilishi va boshqa bir qancha vazifalarni o'zlashtirish uchun bu texnologiyalar ishlatiladi.

3. Ta'lim sohasida: Informatika va axborot texnologiyalari ta'limning turli shakllarini yanada samarali va qulaylashtiradi. O'quv dasturlarini internet orqali o'qitish,

interaktiv ta'lim platformalari, onlayn ma'lumotlar bazalari o'quvchilar va o'qituvchilar uchun muhimdir.

4. Tibbiyot va salomatlik: Axborot texnologiyalari tibbiyot sohasida ma'lumotlar oqimini oshiradi, tibbiy xizmatlarni yaxshilaydi va tibbiy ma'lumotlarni boshqarish imkoniyatlarini oshiradi. Masalan, elektron shifokorlik, telemedicine, boshqaruv tizimlari va yagona ma'lumotlar bazalari tibbiyotning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.

5. Kommunikatsiya va ijtimoiy aloqalar: Internet va mobil kommunikatsiya vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta, axborot texnologiyalari orqali odamlar o'zaro aloqa o'rniga keltiriladi. Bu, insonlar, korxonalar va davlatlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi va ishlarini tashkil etishda, yangiliklarni o'qitishda va ijtimoiy tarmoqlar orqali fikrlar almashishda muhim rol o'ynaydi.

6. Ma'lumot xavfsizligi: Informatika va axborot texnologiyalari xavfsizlik sohasida ahamiyatga ega. Kompyuter viruslaridan himoyalani, ma'lumotlarni shifrlash va hujjatlar o'rtasidagi xavfsizlik o'rniga keltirish katta e'tibor talab etadi.

7. Iqtisodiy rivojlanish: Informatika va axborot texnologiyalari, iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarni ta'minlashda muhim bo'lib, yangi sohalarni o'z ichiga oladi. Xususan, texnologik startaplar va innovatsion loyihalar yangi ish joylarini yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Баркамол авлод - Узбекистон тараккиётининг пойдевори. - Т.: "Шарк", 1997.

2. Икромова Х.З. Ахборот ва коммуникация технологиялари. - Т.: ЮНЕСКО, 2004.

3. S.S.G'ulomov va boshqalar «Axborot tizimlari va texnologiyalari» Т. –«Sharq» - 2016 yil.

4. S.P.Allayorov va boshqalar «Kompyuter ta'limi asoslari», Guliston, 2017 y.

5. D.Sobirov, K.A.Iskandarov. Informatikafani darslarida kompetentsiyaviy yondoshuvga asoslangan ta'lim// Molodoy ucheniy.(2020)

6. Uktamovna, M. M. (2023). Enhancing Vocabulary Acquisition in B2 Level Students through Diverse Exercise Modalities and Reading Activities. Genius Repository, 26, 73-74.

7. Mamadjanova, M. (2023, December). SEMANTIC CLASSIFICATION OF EPITHETS IN THE ENGLISH LANGUAGE. In Fergana state university conference (pp. 88-88).

8. Uktamovna, M. M. (2023). Syntactic-Structural Classification of Epithet in the English Language". American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750), 1(10), 60-62.

9. Mamadjanova, M. U., & qizi Malikova, G. X. (2023). HOW ENGLISH BECOME GLOBAL LANGUAGE: HISTORICAL OVERVIEW. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 888-892.

10. Mamadjanova, M. U., & qizi Xomidova, M. S. (2023). GRAMMAR TRANSLATION METHOD: EXPLORING ADVANTAGES AND DISAVANTAGES. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 309-311.

11. Uktamovna, M. M., & Oybekovna, Z. F. (2023). UNRAVELING THE CONNOTATIVE AND DENOTATIVE MEANINGS OF WORDS. Научный Фокус, 1(8), 640-642.

12. Tojiboyeva, M. S. Q. (2022). SEMANTIC DIVISION OF TOURISM TERMINOLOGY. Scientific progress, 3(6), 116-119.